



INGLIZ TILINI O'RGATISHDAGI ASOSIY MUAMMOLAR VA ZAMONAVIY METODIK YONDASHUVLAR: O'ZBEKISTON TAJRIBASI.

Baxodirova Maftuna Baxodir qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Fing 2432 ingliz filologiyasi fakulteti

baxodirovamaftuna1124@email.com

Telefon raqami: +998 (90) 875-11-24

Annotasiya: Ushbu maqolada O'zbekiston ta'lim tizimida chet tilini o'qitishdagi dolzarb muammolar tahlil qilinadi. An'anaviy va zamonaviy metodlarning farqlari, kommunikativ yondashuv zamonaviy texnologiyalardan foydalanish hamda o'rganuvchilarda motivatsiyani oshirishning usullari o'rganiladi. Shu bilan birga ta'lim muassasalarida dars sifatiga ta'sir etuvchi omillar - pedagog tayyorligi, til o'rganish muhitidagi kamchiliklar, ayrim resus manbalar yetishmasligi keng yoritiladi. Muallif amaliyotidagi tavsiyalar bilan til o'rgatish samaradorligini oshirish yo'llarini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: kommunikativ yondashuv, motivatsiya, til muhiti, zamonaviy metodlar, pedagog tayyorligi.

Annotation: This article analyzes the current problems of teaching a foreign language in the education system of Uzbekistan. The differences between traditional and modern methods, the use of modern technologies in the communicative approach, and methods for increasing student motivation are studied. At the same time, factors affecting the quality of lessons in educational institutions – pedagogical readiness, shortcomings in the language learning environment, and the lack of some resources – are widely covered. The author shows ways to increase the effectiveness of language teaching with recommendations from practice.

Keywords: communicative approach, motivation, language environment, modern methods, pedagogical readiness.

Аннотация: В данной статье анализируются актуальные проблемы преподавания иностранного языка в системе образования Узбекистана. Рассматриваются различия между традиционными и современными методами, применение современных технологий в коммуникативном подходе, а также методы повышения мотивации учащихся. При этом широко освещаются факторы, влияющие на качество преподавания в образовательных учреждениях: педагогическая готовность, недостатки в языковой среде и нехватка некоторых ресурсов. Автор показывает пути повышения эффективности обучения языкам и приводит рекомендации, основанные на опыте практики.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Ключевые слова: коммуникативный подход, мотивация, языковая среда, современные методы, педагогическая готовность.

Bugungi zamonaviy dunyoda ingliz tilini egallash har biri kishining shaxsiy va kasbiy rivoji uchun ajralmas ehtiyoj hisoblanadi. Ingliz tili xalqaro til sifatida bir qator yo'nalishlarda, xususan, ta'lim, biznes va ilm-fan sohalarida asosiy vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Shu sababli, uni samarali o'qitish har bir mamlakat, jumladan O'zbekiston uchun muhim strategik masala sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qaror va farmonlari asosida chet tillarni, ayniqsa ingliz tilini o'rgatish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Shunga qaramay, amaliyotda ingliz tili darslarining sifat darajasi bir xil emas: metodika, o'qituvchilarning tayyorgarliklari, kerakli resurslar yetishmasligi kabi muammolar mavjud. Ushbu maqolaning maqsadi- O'zbekiston tajribasi asosida ingliz tilini o'qitishdagi dolzarb muammolarni aniqlash va zamonaviy metodik yondashuvlar orqali ularning yechimlarini taklif qilishdir.

Ingliz tili ta'limidagi mavjud muammolar.

So'ngi yillarda ingliz tili ta'limi bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlarga qaramay, amaliyotda ayrim muammolar hanuz saqlanib qolmoqda. Birinchi navbatda, o'qituvchilarning pedagogik mahorati va yangi tizimga tayyorligi yetarli darajada emas. Ko'plab hududlarda ingliz tili o'qituvchilari yetarli emas va ingliz tilidan dars berayotgan pedagoglarning til bilish darajasi CEFR mezonlariga tog'ri kelmaydi.

Ikkinchi muammo- an'anaviy, grammatikaga asoslangan yondashuvga haddan tashqari bog'lanishdir. Bu metod o'quvchilarda real kommunikatsion ko'nikmalarni shakllantirishga to'sqinlik qiladi. Tilni faqat nazariy qoidalar va eski metodlar asosida o'qitish ularni haqiqiy hayotda ishlata olishga yordam bermaydi. Uchinchi muammo – til muhiti va amalik mashg'ulotlarning yetishmasligi. O'quvchilar dars davomida o'qituvchini tinglab, o'zlari yetarlicha gapirish ko'nikmalarini rivojlantira olishmaydi. Bu esa passiv bilimga olib keladi. Shu bilan bir qatorda, darsliklar va texnik vositalarning zamonaviy emasligi, chekka hududlarda internet va multimedia imkoniyatlarining zaifligi ham ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy yondashuvlar va metodlar.

Bugungi kunda ingliz tilini o'rganishning samaradorligini oshirish maqsadida bir qator innovatsion metodlar va differentsiallashtirilgan ta'lim taklif qilinmoqda. Chet el tajribasi shuni ko'rsatadiki, kommunikativ metod bugungi kunda eng samarali metodlardan biri sifatida ko'rilmoqda.. Ushbu metod tilni faqat grammatik qoidalar asosida emas, balki muloqot vositasi sifatida o'rgatishga urg'u beradi. O'quvchilar real vaziyatlarda qanday so'zlashish, savol-javob qilish, fikr almashish orqali gapirish ko'nikmalari rivojlantiriladi. Bundan tashqari, CLIL (CONTENT AND LANGUAGE INTEGRATED LEARNING) yondashuvi ham dars jarayonining ijobiy natijalarini oshirmoqda. Bu usulda o'quvchilar boshqa fanlarni ingliz tilida o'rganib, tilni tabiiy ravishda egallashga





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

muvaffaq bo'ladilar. GAMIFIKATSIYA-dars jarayoniga o'yin elementlarini qo'shish orqali o'quvchi talabalarda qiziqish uyg'otish vositasi hisoblanadi. Bu orqali o'rganuvchilar ongida bu zerikarli va qiyin emas, balki zavqli mashg'ulot sifatida qoladi. Shu kabi o'yin texnologiyalari o'quvchilarda motivatsiyani kuchaytiradi va yangi til o'rganishni osonlashtiradi. Bunga misol sifatida Duolingo, Quizlet, Kahoot kabi ilovalarni keltirish mumkin. Shuningdek, flipped classroom modeli, ya'ni darsni oldindan video orqali mustaqil ko'rish va dars mobaynida faqat amaliyot qilish yondashuvi ham til o'rganishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston taajribasi asosida tahlil va takliflar.

O'zbekiston ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'rgatish borasida olib borilayotgan amaliy faoliyatlar ma'lum darajadagi ijobiy natijalar bilan bir qatorda, hali to'liq hal etilmagan muammolarni ham namoyon etmoqda. Xususan, Toshkent, Samarqand va Namangan viloyatlaridagi ayrim umumiy o'rta ta'lim muassasalari hamda oliy o'quv yurtlarida kuzatilgan holatlar o'qituvchilarning innovatsion o'zgarishlarga moslashuvi va zamonaviy interaktiv usullardan foydalanish malakasi turlicha darajada ekanini ko'rsatadi.

Tajriba sifatida ayrim nodavlat ta'lim muassasalarida joriy etilgan CLIL va project-based learning metodlari yaxshi samara bermoqda. Shuningdek, "Peer Learning" — o'quvchilarni juftlikda yoki guruhda ishlatish orqali ularning til faolligi ortishi kuzatilgan.

Tavsiya etiladiki, har bir hududning o'ziga xos shart-sharoitlarini inobatga olgan holda mos metodlarni tanlash lozim. Bundan tashqari, o'qituvchilar uchun malaka oshirish dasturlarini zamonaviy texnologiyalar va metodikalar asosida muntazam tashkil etish maqsadga muvofiq.

Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida aytish mumkinki, ingliz tilini o'rgatishda yagona, hamma joyda bir xil metod emas, balki sharoitga mos yondashuv zarur. Zamonaviy metodlar — kommunikativ yondashuv, CLIL, flipped classroom va gamifikatsiya orqali o'quvchilar faol ishtirok etadigan, qiziqarli va foydali darslar tashkil qilish mumkin.

O'zbekiston sharoitida bu metodlarni joriy etishda texnologik, metodik va inson resurslarini to'g'ri boshqarish muhim. Mazkur maqola aynan shu masalalarda yo'l xaritasi sifatida xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-apreldagi "Chet tillarni o'rganishni ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–5117-son qarori.
2. CEFR – Common European Framework of Reference for Languages. Council of Europe, 2001.
3. Richard, J.C. & Rodgers, T.S. (2001). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

4. Harmer, J. (2007). The Practice of English Language Teaching. Longman.
5. Oxford, R. (1990). Language Learning Strategies: What Every Teacher Should Know. Newbury House.
6. Mehmonov M. (2022). "Ingliz tilini o'qitishda kompetensiyani shakllantirish", Filologiya masalalari, №3.
7. Karimova Z. (2023). "CLIL metodikasi asosida integrallashgan ta'lim", Ta'lim va innovatsiya, №2.
8. British Council (2021). English Language Teaching in Uzbekistan: Challenges and Innovations.
9. Warschauer, M. & Kern, R. (2000). Network-Based Language Teaching: Concepts and Practice. Cambridge University Press.
10. <https://www.duolingo.com> – Duolingo ilovasi ta'limiy tavsiflari.

